



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024- yil yanvar*



***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: 74 228-30-57***

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosati boshqaruvida to'g'ri qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 017 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 102 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 915 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 405,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan 112,0 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 127,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 277,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 236,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 135,3 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	1 405,5	112,0
Andijon sh.	410,4	114,2
Xonobod sh.	14,1	109,9
<i>tumanlar</i>		
Oltinko'l	53,5	109,1
Andijon	87,9	108,8
Baliqchi	92,5	109,0
Bo'ston	19,8	110,5
Buloqboshi	42,6	111,2
Jalaquduq	45,3	109,6
Izboskan	47,5	110,0
Ulug'nor	17,9	109,4
Qo'rg'ontepa	93,1	117,8
Asaka	120,4	115,0
Marhamat	64,4	113,1
Shahrixon	183,1	111,5
Paxtaobod	59,9	108,7
Xo'jaobod	52,9	105,5


2024- yilning yanvar oyida 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Andijon shahri (14,2 %), Qo'rg'ontepa (17,8 %), Asaka (15,0 %), Marhamat (13,1 %), Shahrixon (11,5 %), va Buloqboshi (11,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2024- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023- yilning mos davriga nisbatan 112,0 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar oylarida o'sish sur'ati **112,0** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 29,2 % bilan 410,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Xonobod shahri 1,0 % bilan 14,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024- yilning yanvar oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 277,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 13,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 3,6 % ga o'sdi va 127,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'rg'ontepa (98,7 %), Ulug'nor (98,3 %), Shahrixon (98,3 %), Marhamat (97,6 %), va Buloqboshi (97,6 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahri (21,8 %), Xonobod shahri (7,4 %), Andijon (9,4 %), Jalaquduq (6,9 %) va Bo'ston (6,9 %) tumanlarida kuzatildi.

9,1 %

90,9 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2024- yilning yanvar oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 418,5 ming. so'm (2023- yilning yanvar oyiga nisbatan (109,7 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Andijon shahri (865,2 ming so'm), Shahrixon (570,7 ming so'm) va Xo'jaobod (446,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (ozuq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	236,1	135,3
Andijon sh.	43,6	122,2
Xonobod sh.	0,7	2,3 b.
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	4,2	103,2
Andijon	4,0	58,8
Baliqchi	13,6	118,5
Bo'ston	1,4	108,8
Buloqboshi	7,6	139,8
Jalaquduq	6,0	2,3 b.
Izboskan	3,7	2,6 b.
Ulug'nor	6,6	107,8
Qo'rg'ontepa	15,3	4,8 b.
Asaka	33,0	198,4
Marhamat	17,6	161,6
Shahrixon	52,3	126,6
Paxtaobod	17,7	105,6
Xo'jaobod	8,8	82,8


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi
o'sish sur'atlari
(2024- yil yanvar)**














**Hududlar kesimida uyushmagan
savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm
(2024- yil yanvar)**



Viloyat bo'yicha 2024- yilning yanvar oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 236,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar oyiga nisbatan 135,3 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 85,8 mlrd. so'mni (141,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 150,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (131,9 %).













2024- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 85,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (34,4 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>34,4 mlrd. so'm</p>  <p>40,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>23,1 mlrd. so'm</p>  <p>27,4 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>9,7 mlrd. so'm</p>  <p>11,5 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>3,0 mlrd. so'm</p>  <p>3,5 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,3 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>2,8 mlrd. so'm</p>  <p>3,4 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,3 mlrd. so'm</p>  <p>3,9 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>1,8 mlrd. so'm</p>  <p>2,1 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem-xashak</p> <p>0,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,9 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,3 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,5 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>1,6 mlrd. so'm</p> <p>1,9 %</p>

2024- yilning yanvar oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi 150,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi 123,6 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar – 24,5 mlrd. so'mni, otlar – 1,5 mlrd. so'mni, quyon va parrandalar – 0,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>69,3 mlrd. so'm</p>  <p>46,1 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>33,6 mlrd. so'm</p>  <p>22,3 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>20,8 mlrd. so'm</p>  <p>13,8 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>24,0 mlrd. so'm</p>  <p>16,0 %</p>	<p>Otlar</p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>1,0 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,1 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyonlar</p> <p>0,04 mlrd. so'm</p>  <p>0,03 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p>  <p>0,01%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 191 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 190 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	30,1	110,3
Andijon sh.	13,3	108,4
Xonobod sh.	0,4	111,6
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	1,5	111,0
Andijon	2,4	111,7
Baliqchi	0,9	111,4
Bo'ston	0,4	105,3
Buloqboshi	0,3	112,3
Jalaquduq	0,6	112,0
Izboskan	0,9	112,9
Ulug'nor	0,3	111,4
Qo'rg'ontepa	1,1	113,0
Asaka	1,4	112,8
Marhamat	0,9	112,7
Shahrixon	3,9	112,2
Paxtaobod	1,0	112,7
Xo'jaobod	0,7	111,2

2024- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 30,1 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Andijon viloyati	250,9	113,6
Andijon sh.	150,0	98,1
Xonobod sh.	0,03	103,8
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	13,7	116,0
Andijon	12,9	121,0
Baliqchi	0,3	106,0
Bo'ston	0,04	110,7
Buloqboshi	0,1	108,3
Jalaquduq	0,4	120,1
Izboskan	0,2	112,5
Ulug'nor	0,02	111,3
Qo'rg'ontepa	4,1	123,4
Asaka	33,9	167,1
Marhamat	1,3	120,2
Shahrixon	1,4	119,8
Paxtaobod	0,1	107,2
Xo'jaobod	32,5	162,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Andijon shahri (150,0 mlrd. so'm), Asaka (33,9 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (32,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (mlrd. so‘m)




2024- yilning yanvar oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 250,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ga ortdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 97,7 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 3,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 153,2 mlrd. so‘mni (o‘sish sur‘ati – 119,6 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o‘sinh sur‘ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda




Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 413,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 397,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 117,9 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 96,0 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 2 870 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 851 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Andijon (2,2 m.), Xo'jaobod (2,5 m.) va Ulug'nor (3,5 m.), tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- oyiga nisbatan, foizda
Andijon viloyati	413,5	110,7
Andijon sh.	161,6	111,7
Xonobod sh.	1,9	108,5
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	19,5	112,6
Andijon	30,6	108,2
Baliqchi	27,8	110,2
Bo'ston	10,4	110,9
Buloqboshi	9,1	111,3
Jalaquduq	4,2	111,0
Izboskan	8,0	112,5
Ulug'nor	4,5	111,6
Qo'rg'ontepa	9,5	109,1
Asaka	12,6	107,7
Marhamat	8,0	103,3
Shahrixon	93,1	110,8
Paxtaobod	7,3	111,3
Xo'jaobod	5,4	108,8